

TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA GLOBAL ISTIQBOLLARNI O'RGANISH*S. Allaberganova¹**Annotatsiya:*

Ushbu maqolada til o'rganishning xususiyatlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, shuningdek tavsiyalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tillarni o'rganish, ikkinchi til, baynalmilallik.

doi: <https://doi.org/10.2024/2xaqq178>

Ta'lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, o'quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirish davlat siyosatining ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarur. Bu davr insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishlari va muloqot qila olishlari maqsadga muvofiq. Buning uchun xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish hamda chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining zimmasiga – xorijiy til o'qituvchilari chet tillarni chuqur o'rganish va o'rgatish vazifalarini, xorijdagi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or innovatsion pedagogik tajribalaridan foydalanish va shu asosida xorijiy tilni o'qitishning zamonaviy samarali metodikasini yaratish vazifasi qo'yildi. Xorijiy tillarni o'qitish va o'quvchi yoshlar bilimni baholash borasida zamonaviy kommunikativ kompetensiyaviy metodikalarga asoslangan innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim tizimining barcha bosqichlariga joriy etish vazifasi ham kun tartibidagi muhim vazifalarga aylanmoqda.

Xorijiy tillarni o'qitish borasida yangicha yondashuvlarga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatni ko'proq rag'batlantirish, bunda asosiy e'tiborni ilmiy ishning amaliy samaradorligiga qaratish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy izlanuvchilar tomonidan ishlab chiqilgan metodlarni bevosita ta'lim muassasalarida amaliy sinovdan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va joriy etish samarali natijalarga olib kelishi shubhasiz.

Ona tilidan keyingi navbatda o'rganiladigan har qanday til ikkinchi deb hisoblanadi. Uni o'rganishda o'ziga xos qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Oldin o'zlashtirilgan birinchi tilning yordam berishi (transpozitsiya) yoki xalaqit berishi (interferensiya) hollari yuz beradi. Til ta'limshunosligidagi o'qitish sharoiti, maqsadi, mazmuni, metodi tushunchalari orqali ikkinchi til metodikasi tahlil qilinadi. Sharoit xususida faqat ijobiy gap bo'lishi mumkin: tabiiy muhitda qo'shni, mahalladosh, „domdosh“, hamyurt tili o'rganiladi. Uning tilini o'rganish do'stlik ramzidir. Axborot vositalari ikkinchi til muxlislari xizmatiga doim tayyor.

¹ *Allaberganova Sevinchoy Marks qizi, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Yoshlar ittifoqi BT yetakchisi*

Tashkiliy ravishda ikkinchi til o'rganish ham bir qancha qulayliklarga ega til o'rganish uchun sharoit mavjud va maqsadlar aniq. Ta'lim maqsadlariga ko'ra nutq malakalari va tilshunoslik ma'lumotlari o'rganiladi. Turli o'quv yurtlari manfaatlarini ko'zlab ushbu tilda dasturiy talablar qoidalashtirilgan. Ona tili va chet til o'qitish maqsadlari bilan ikkinchi tildagi maqsadlarni muvofiqlashtirish tavsifa etiladi.

Chet tillarini nima uchun o'rganishimiz kerak? Men hozir chet tillarini nega o'rganish kerakligi sabablarini haqida yozib chiqaman.

1. Chet tillarni o'rganish miyangizni o'stiradi. Tadqiqotlar, siz necha yoshda bo'lishingizdan qat'i nazar, boshqa tilni o'rganishning kognitiv afzalliklarini namoyish etdi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikki tilli odamlarning miyasi kattaroq, xotirasi yaxshi, ijodiy, muammolarni hal qiladigan va boshqalar. Ushbu afzalliklar nafaqat ko'proq tillarni o'rganishni, balki hamma narsani o'rganishni osonlashtiradi. Vazifalarni tezda almashtirish qobiliyati, bugungi band bo'lgan ko'p vazifali dunyoda ayniqsa muhimdir. Ikki tilli vazifalar bir tilli hamkasblariga qaraganda ancha tezroq almashinishi va bir vaqtning o'zida ko'plab boshqa vazifalarni bajarishi mumkin.

2. Chet tilini o'rganganingizda sayohat arzonlashadi va osonlashadi Albatta ko'p insonlar sayohat qilishni hush ko'rishadi. Chet davlatga borganingizda til bilish sizga juda katta foyda beradi. Oddiygina ovqatlanishga borganda o'zingiz istagan taomni bemaolol tushuntira olasiz. Yo'l so'rashni ham o'zingiz atrofdagi mahalliy insonlardan so'rab, qiyinchiliklarsiz eplay olasiz. Agar siz o'zingiz bilan gid oladigan bo'lsangiz juda ham qimmatga tushardingiz.

3. Chet tilni o'rganish ish topish uchun dunyo ochadi. Hech kimga sir emaski, chet tilini o'rganish ish bilan ta'minlash istiqbollarni yaxshilashi mumkin. Har qachongidan ham ko'proq kompaniyalar dunyoning bir necha, ko'pincha o'z mamlakatlarida ish olib bormoqdalar, ammo ular hech bo'lmaganda bitta chet tilini tushunadigan odamlarni ishga yollamasdan buni qila olmaydilar. Hatto kichik mahalliy kompaniyalarda ham ikkinchi tilda gaplashish qobiliyati sizni boshqa ish oluvchilardan ajratib qo'yishi ehtimoli katta.

Xorijiy tilni o'rganishdan hayiqib, «menga shu til kerak bo'larmikan?» deb o'ziga savol beruvchilar, shubhalarigiz bekorligiga ishonavering. Zamonaviy dunyoda xorijiy til suv bilan havodek zarur. Til o'rganuvchilarning aksariyati 17-30 yoshni qarshilagan kishilardir. Endi ishga kelgan tajribasiz yoshlarning ko'pchiligi to'g'ri tajriba orttirguncha chet tillaridan bir nechtasini bilishi evaziga «jon saqlashadi».

Ikkinchi til bo'yicha ta'lim mazmuni muammosi xalqaro miqyosda mukammal ishlab chiqilgan. Binobarin, ikkinchi til o'rganishni baynalmilal maqomda muvofiqlashtirish mumkin. Ikkinchi til o'rganish ona tiliga yaqinroq turadi. Ta'lim mazmunini sinfdan/maktabdan tashqarida o'zlashtirish imkoniyati mavjud. Beixtiyor o'rganiladigan material tez va puxta o'zlashtirib olinishi tabiiy. Ushbu tilni egallash shu darajaga yetishi mumkinki, hatto u ikkinchi ona tili (albatta, bu shartli termin, chunki ona bitta bo'ladi, ikkinchisi o'gay bo'lishi mumkin) degan nomni ham qozona oladi. Xorijda va mamlakatimizda nashr etilgan til o'qitishga oid metodik adabiyotlar orasida ikkinchi tilni o'rgatishga doirlari nihoyatda ko'p. Demak, masalalarning ishlanganligi, sharoit muhayyoligi va xohish-istak borligi ushbu tilni egallashga keng yo'l ochadi. Ikkinchi tilni o'rganish ona tilidagi tajribaga suyanishni taqozo etadi va, o'z navbatida, cfyet tilni egallashga o'zining tegishli ta'sirini o'tkazadi.

Har bir ta'limga daxldor inson Prezidentimizning ushbu "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi" kabi fikrini hamma vaqt yodimizda tutishimiz ham qarz, ham farz demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. J.Jalolov „Chet til o`qitish metodikasi“, Toshkent-2012
- [2]. Abdurahmanova D., Jo'rayev R. *Uzbek anecdotes in German // World literature.* - 2006. No
- [3]. Alimuhaniedov A. *History of ancient literature.* - T.: Teacher, 1975.
- Bazar I.A. *Goethe's gift // World literature".* - 1999. No
- [4]. Egamova Y. *Goethe's genius // World literature.* - 1999. No